

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vlastov S., Florin S. Neperevodimoye v perevode. –M.: Mejdunarodniye otnosheniya, 1980.
2. Formanovskaya N.I. Vi skazali: «Zdravstvuyte», rechevoy etiket v nashem obshenii. Izd. 3. –M.: Znaniye, 1989.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya (uchebnoye posobiye) –M.: Akademiya, 2001. –208 s.; Vorobyov V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –M., 1997.
4. Maslova V.A. Vvedeniye v kognitivnuyu lingvistiku. – M.: Flinta, 2004.
5. Mitali S. Obrasheniye kak element russkogo rechevogo etiketa v sravnenii s bengalskim. Dis. ...kand. filol. nauk. (sokr. elektr. versiya). – M., 2001.

PUBLITSISTIKA VA ADABIYOTSHUNOSLIKNING TARIXAN MUSHTARAKLIGI MASALASI

Shohruh QOSIMOV

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti*

*To'g'on va Qudrat Ernazarov nomidagi
Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasi mudiri*

Ramziddin ABDUSATTOROV

*O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika
fakulteti Jamoatchilik bilan aloqalar va
reklama kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent*

Annotatsiya. Maqolada publitsistika va adabiyotshunoslikda ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv jarayonlarining OAVda yoritilishi qonuniyatlari, ushbu ikki yo'nalishning tarixan mushtarakligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Publitsistika va adabiyotshunoslik, badiiy-publitsistik, ilmiy-publitsistika, jadidchilik, jurnalistika va uning janrlari.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilgan ilk kunlardan oq ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu tarixiy nuqtai nazardan asosli, mantiqiy asosga ko'ra zaruriyat ham edi. Milliy tiklanish konsepsiyasi taqozosiga ko'ra, o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligi ham yangi mavzu va tadqiqotlarni yoritish vazifasiga kirishdi. Ayniqsa, o'tmishning qoralangan, xalq bag'ridan tortib olingan adabiy, ma'naviy merosini qayta tiklash, ilmiy baho berishda matbuotning o'rni beqiyosdir. Shunday qilib, yaqin o'tgan tariximizga doir haqiqatlarning ilmiy-ommabop

tafsilotlari ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi. Adabiyotshunoslarning millat tarixini yorituvchi publitsistik maqolalari ham xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, istiqlol davri publitsistikasining o'ziga xos asoslari sifatida, eng avvalo, millat ma'naviy ildizlarini yoritish, ikkinchidan, istiqlol fidoyilari – jadidlar nomi va asarlarini to'laqonli xalqqa yetkazish, uchinchidan, milliy mustaqillikni mustahkamlashga chorlash g'oyalarini ko'rsatish mumkin. Shu ma'noda adabiyotshunos olimlarning jadidchilikka bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarini matbuotda yoritilishi masalasini o'rganishga zarurat bor. Negaki, muayyan davr, yoyinki, millat ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida, o'tish davrlarida publitsistikaga ehtiyoj oshishi tabiiy hol. Shu munosabat bilan istiqlolning ilk yillarida publitsistika barcha ma'naviyat yo'nalishlariga kirib bordi. Qolaversa, o'ziga xos spetsifik xususiyatlari orqali millat hayotidagi yetakchi targ'ibot minbariga aylandi. "Publitsistik ijod deganda, odatda, voqelikni hujjatlar asosida qayta tiklash anglashiladi. Publitsistikaning har qanday ko'rinishida, publitsistik organizmning har bir hujayrasida ana shu omilning ta'siri sezilib turadi"⁸³. O'zbek milliy publitsistikasi tarixida bu holat xalqimiz hayotida sodir bo'lgan ikki muhim bosqichda yanada kuchli ahamiyat kasb etdi. Publitsistika xuddi jurnalistika singari o'z navbatida turli turlarga, xillarga bo'linib ketadi: ijtimoiy-siyosiy, publitsistika, ilmiy-publitsistika, adabiy-badiiy publitsistika, hajviy publitsistika va boshqalar. Publitsistika hayotni yoritishda shakliy nuqtai nazardan esa uchga – informatsion, tahliliy va badiiy publitsistikaga bo'linadi⁸⁴.

Dastlab, 1906-yil 27-iyunda Ismoil Obidiyning "Taraqqiy"si boshlab bergan milliy matbuot qamrovi va missiyasining nihoyatda kengayishi natijasida sodir bo'lgan milliy uyg'onish, keyingisi mustaqillik yo'l ochgan milliy yuksalish masalasining kun tartibiga chiqishidir. Istiqlol yillarida o'zbek publitsistikasida g'oyaviy hamda uslubiy sinkretizmni kuzatish mumkin. Publitsistikadagi turg'un mavzular va etalon fikrlar, shiorbozlikdan voz kechildi. OAV turlari, janrlari kengayib, ixtisoslashib bordi. Yangidan yangi gazeta, jurnal, nashriyotlar ta'sis etildi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy,

⁸³ Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Воронеж. ун-т., 1975. – С. 6-7.

⁸⁴ Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланма. – Т.: "Университет", Худойқулов М. 2008.

ma'naviy o'zgarishlar publitsistik janrlar tabiatiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Jadid ziyolilari boshlab bergan publitsistik inersiya batamom yo'q bo'lib ketmagan, goh ramziy, goh yashirin tarzda davom etayotgan edi. Mustaqillik tufayli bu imkoniyat yana qayta paydo bo'ldi. Har qanday publitsistik asar singari badiiy-publitsistik asarning ham muhim mazmuniy asosi fakt hisoblanadi. Fakt deb, birinchidan, voqelikning yuzaga chiqqan biror lahzasiga aytilsa, ikkinchidan, publitsistikada muallif mulohazasi, fikrlariga ham fakt sifatida qaralishi mumkin. Hayotiy fakt va hujjatlar faqat voqelikning qandaydir lahzalarinigina emas, balki odamlarning real xatti-harakatlarini ham ifodalaydi. Shuning uchun ular publitsistik tasvir predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Publitsist shaxsiy aralashuvning kuchi bilan eng ahamiyatli faktlarni ajratib ko'rsatadi, ta'kidlaydi va izohlaydi. Demak, badiiy publitsistika faktlar haqida quruq ma'lumot bermaydi, "...balki hayot faktlari bilan bog'liq muammolarni chuqur tahlil etadi, ularning mohiyatini aniq ochib beradi". Adabiyotshunos, tarixchi, jurnalist, adabiy manbashunos va matnshunos yaqin o'tgan tarixni tanqidiy tahlil qilish, unga xolisona baho berish, jamiyat taqozo etayogan muammolarni ro'y-rost o'rta qo'yish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu davr publitsistikasida tarixiy, adabiy, madaniy meros, milliy qadriyatlar, unutilgan siymolar, qatag'on qurbonlari biografiyasi, asarlarini xalqqa tezroq yetkazishga bo'lgan ishtiyoq yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov, adabiyotshunoslar B.Qosimov, S.Ahmedov, U.Dolimov, Sh.Yusupov, N.Jabborov, U.Jo'raqulov, B.Karimov, H.Boltaboyevning 1991 yillardagi ilmiy kuzatishlari asosan jadid ziyolilarining hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan keng ko'lamli ishlardan edi.

Mustaqillik davrida jadidshunoslikdek muhim ilmiy muammoni publitsistik miqyosda, adabiy-ilmiy ijod negizida xalqqa yetkazgan olimlar orasida professor B.Qosimovning ilmiy faoliyati ancha salmoqlidir. Adabiyotshunosning jadidchilikka bag'ishlangan kuzatishlari milliy publitsistikada jadal yoritib borildi. Shunday ekan, mazkur olimning ilmiy-publitsistik ijodini tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi. B.Qosimov tadqiqotlariga xos ilmiy konsepsiya, mavzuga turlicha aspektda yondashuv, tarix va

manbalarning qiyosiy tahlili o'zbek jadidshunosligida o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Uning shaxsiyatida ham milliy uyg'onish, milliy g'urur va o'zlik, o'zbekning ma'naviy qadriyatlari chuqur singgani uchun ham adabiyotshunoslik konsepsiyasi barqaror tamoyilga ega. Jadidchilik harakati, ziyolilar yashab, ijod etgan tarixiy davr, ular ilgari surgan adabiy tushuncha va qarashlarni shuuriga singdirgan olim juda talabchan mustahkam publitsistik pozitsiyasini turli rakurslarda namoyon etadi. Jadidshunoslik istiqbolning ilk yillarida ancha ravnaq topdi. Ziyoli shaxs borki, o'tmish asoratlari, biqiq jamiyat, mustamlakachilik iskanjasi borasida fikr yuritganida, albatta jadid ziyolilari nomlarini keltirib o'tishni publitsistik tamoyil darajasiga olib chiqdi. Lekin shunchaki jadidlar nomini sanab o'tish, jadidshunos bo'ldi degani emas. Jadidshunoslikka da'vogar olim, jurnalist yoki tarixchi, eng avvalo, qo'lyozma, toshbosma manbalarni o'qiy olishi shart. Aks holda, kimdir yozgan sharh xoh u to'g'ri bo'lsin yoki aksincha, kitobdan kitobga, maqoladan maqolaga ko'chib yuraveradi. Asl manbani o'rgangan olim, o'sha davrga xolis, to'g'ri baho bera oladi. 1991-2001 yillar OAV kuzatganimizda, mustaqillik, Vatan, tarixni haqqoniy yoritish masalasi kun tartibining asosiy vazifasi sanalganini kuzatish mumkin. Bunda publitsistikaning barcha janrlaridan faol foydalanildi. Masalan, esse, suhbat, xabar, reportaj, maqola shular jumlasidandir.

✓ Muayyan sana munosabati bilan (umumxalq bayramlari, jadid ziyolilarining tavallud sanalari) soha ijodkorlari bilan suhbatlar;

✓ Jadidshunos olimlarning yangi asarlari taqdimoti munosabati bilan yozilgan taqrizlar;

✓ Behbudiy, Munavvar Qori, Ibrat, Avloniy, Said Ahroriy, Fitrat, CHo'lpon va boshqa ziyolilar hayoti va ijodiga doir yangi xabarlar anonsi;

✓ Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namunalarining sahnalashtirilishi va ommalashtirilishini OAV da yoritish;

✓ Jadidshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop materiallarni nashr qilish kabi qonuniyatlar doirasida milliy publitsistikamiz jadidshunoslik yo'nalishi bilan ham boyidi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bekasov D. G. Korrespondensiya, statya – janri publitsistiki. – M.: MGU, 1972. – 76 s.
2. Belaya G. A. Xudojestvenniy mir sovremennoy prozi. – M.: Nauka, 1983. – 190 s.
3. Abdimuratov A. Kaipbergenova T. Publitsistika: spetsifika, tematika, janrovo-stilisticheskiye osobennosti: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1997. – 21 b.
4. Dosmuhamedov X. N. Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy metodologik tahlil (Mustaqillik davri o'zbek matbuoti faoliyati misolida. 1991-2008 yillar): Filol. fanlari doktori ... dis. avtoref. – Toshkent, 2008. – 40 b.
5. Yo'ldoshbekova S. S. Cho'lponning publitsistik va muharrirlik faoliyati: Filol. fanlari nomzodi ... dis. avtoref. – Toshkent, 2003. – 27 b.
6. Lukyanova L. V. "Bodalsya telyonok s dubom. Ocherki literaturnoy jizni" A. I. Soljenitsina kak xudojestvenno-publitsisticheskiy fenomen: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Rostov n/D., 2002. – 19 s.
7. Xudoyqulov M. O'zbek hajviy publitsistikasining shakllanish tamoyillari (XIX asr oxiri – XX asr o'rtalari o'zbek matbuoti materiallari asosida): Filol. fanlari doktori ... dis. – Toshkent, 2001. – 293 b.
8. Qo'chqorova M. X. Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janri: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 2004. – 134 b.

LEKSIK SATHDA QARAMA-QARSHILIK MUNOSABATINING AKS ETISHI XUSUSIDA

E. IBRAGIMOVA

FarDU dotsenti, f.f.n.

E. O'RINBOYEVA

FarDU katta o'qituvchisi, f.f.b.f.d., (PhD)

***Annotatsiya.** Maqolada antonim va uning turlari, antonimiya hodisasi orqali yuzaga chiquvchi qarama-qarshilik munosabatining leksik sathda ifodalanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Nazariya badiiy matndan olingan misollar yordamida dalillangan.*

***Kalit so'zlar:** antonim, lug'aviy antonim, antonimik juftlik, qarama-qarshilik munosabati.*

Antonimlik ikki til birligi orasidagi ma'no munosabati bo'lib, ikkisi birgalikda antonimik juftlikni tashkil qiladi. Ushbu munosabatda biri ikkinchisining